



## TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2020 yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Toshkent viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqi yuqori bo'lgan: Olmaliq shahrida 3 954,1 ming so'mni (150,6 %), Bekobod shahrida 3 602,6 ming so'mni (134,2%) tashkil etdi, Nurafshon shahrida 2 890,2 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 110,1 % ) tashkil etadi. Aksincha, ya'ni o'rtacha oylik ish haqi past bo'lgan: Bekobod tumanida 1 591,9 ming so'm (30.6 %), Parkent tumanida 1 701,1 ming so'm (64,8 %), Bo'ka tumanida 1 593,9 ming so'm (viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 115,3%), Piskent tumanida 1975,3 ming so'm (60,7%) ni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida viloyatning boshqa hududlariga nisbatan kam miqdorni tashkil etmoqda.





## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatidagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi % da**  
*(2020-yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz)*





## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

### Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)


	2019 yil yanvar-sentabr	2020 yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	2387,7	2 727,3	114,2
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	2558,5	3 127,9	122,3
Olmalik	3881,9	4 204,8	108,3
Angren	1939,7	2 233,4	115,1
Bekobod	2957,4	3 342,6	113,0
Chirchiq	2268,0	2 555,2	112,7
Ohangaron	2209,1	2 697,8	122,1
Yangiyo'l	1897,6	2 077,4	109,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1703,8	1 952,3	114,6
Ohangaron	1977,1	2 250,1	113,8
Bekobod	1488,0	1 680,4	112,9
Bo'stonliq	1980,7	2 232,9	112,7
Bo'ka	1651,0	1 723,0	104,4
Zangiota	2279,6	2 851,3	125,1
Qibray	2184,7	2 649,3	121,3
Quyichirchiq	1735,4	2 021,4	116,5
Parkent	1589,0	1 803,8	113,5
Piskent	1651,6	1 975,3	119,6
O'rtachirchiq	1864,4	2 186,2	117,3
Chinoz	1769,8	1 907,0	107,8
Yuqorichirchiq	1971,9	2 281,4	115,7
Yangiyo'l	2146,0	2 481,7	115,6
Toshkent	1926,9	2 098,9	108,9






## Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)



**Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da**

*2020 yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)*



Ta'limda 1599 ta muassasada 78365 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 27,9 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 491574,7 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 22,8 % ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2090,8 ming.so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 146,5% ga o'sdi.



Sanoatda 101 ta korxonada 91985 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 34,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 984821,5 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 45,6 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3568,8 ming.so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 135,9 % ga o'sdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 115 ta muassasada 39626 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,7 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 205078,8 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 9,5 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1725,1 ming. so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 147,0 % ga o'sdi.



Tashish va saqlashda 27 ta korxonada 3496 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 16729,9 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,8 % ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1595,1 ming. so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 129,0 % ga o'sdi.

Moliyaviy va sug'urta faoliyatida 82 ta muassasada 3363 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 43589,3 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,0 % ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4320,5 mln.so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 154,7 % ga o'sdi.



**Ma'lumot uchun:** "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2019 yildagi 4555-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Qarorga muvofiq, joriy yilning 1-fevraldan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.



*Toshkent viloyat statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
Tel: (71) 202-86-78,*